



TEST VARIANTI RAQAMI: **1944499**

## BIOLOGIYA

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig'idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini [@dtmxizmatbot](#) orqali jo'nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO'G'RI KO'CHIRING!

1	9	4	4	4	9	9
1	1	1	1	1	1	1
2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3	3
4	4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	6	6
7	7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9	9
0	0	0	0	0	0	0

- Prokariot parazit organizmlarni aniqlang.
  - qoqshol qo'zg'atuvchisi, herpes
  - pnevmokokk, vabo qo'zg'atuvchisi
  - sil qo'zgatuvchisi, nozema
  - kuydirgi qo'zg'atuvchisi, batsidiya
- Qirqquloq va psilofitlarning umumiy jihatlarini aniqlang.
  - suvdan quruqlikka chiqqan dastlabki quruqlik o'simliklari; 2) ildiz tizimiga ega;
  - sporalari sporangiyalarda yetiladi;
  - poyaning paydo bo'lishi ilk aromorfoz hisoblanadi; 5) bargning paydo bo'lishi ilk aromorfoz hisoblanadi; 6) vegetativ organ – poyaga ega.
  - 5, 6
  - 3, 6
  - 1, 3
  - 2, 4
- "Sinf" sistematik birligiga mos keluvchi javobni aniqlang.
  - ko'p tuklilar, bo'shliqichlilar
  - qorinoyoqlilar, ochiq urug'lilar
  - xordaliar, molluskalar
  - zuluklar, o'rgimchaksimonlar
- Oqsillarga xos xususiyatlarni aniqlang.
  - yog' kislotalardan iborat; 2) monomeri aminokislotalardan iborat; 3) monomerlar peptid bog'lar bilan bog'langan; 4) tuzilishiga ko'ra bir xil monomerlardan tashkil topgan;
  - lipidlar bilan birikib glikolipidlarni hosil qiladi; 6) translyatsiya jarayonida sintezlanadi.
  - 2, 4, 5
  - 2, 3, 6
  - 1, 3, 5
  - 3, 5, 6
- Topinambur tugunagining rangi ikki juft komplementar genlar yordamida irsiylanadi. Genotipda  $A$  va  $B$  genlari qizil,  $A$  va  $b$  genlari sariq,  $a$  va  $B$  genlari binafsha ranglarni,  $aabb$  holatda tugunakni oq bo'lishini ta'minlaydi. Rangning to'liq yuzaga chiqishi  $DD$  modifikator genga bog'liq. Modifikator genlar geterozigota holatda ranglarning och, retsessiv gomozigota holatda esa rangni yuzaga chiqarmaydi, tugunak oq bo'ladi. Digeterozigotali tugunagi och sariq va och binafsha rangda bo'lgan o'simliklar o'zaro chatishtirildi. Olingan avlodlarning necha %ida tugunak och-qizil rangli bo'ladi?
  - 18,75
  - 12,5
  - 6,25
  - 56,25
- Kiprikli chuvalchaglarning parazit yashashga moslashgan vakillaridan so'rg'ichlilar hamda tasmaimon chuvalchaglarning kelib chiqishi (a), yettisoq, murg'ob, xiva qirg'ovul kenja turlarining paydo bo'lishi (b), xaltali krot va oddiy krot tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi (c) qaysi biologik hodisalarni aks ettiradi?
  - $a$  - makroevolutsiya;  $b$  - mikroevolutsiya;  $c$  - konvergensiya
  - $a$  - mikroevolutsiya;  $b$  - makroevolutsiya;  $c$  - divergensiya
  - $a$  - divergensiya;  $b$  - makroevolutsiya;  $c$  - konvergensiya
  - $a$  - mikroevolutsiya;  $b$  - divergensiya;  $c$  - makroevolutsiya

7. Zuhrasochning gametofiti ... (a), funariyaning sporofiti ... (b), sershox qirqbo'g'imning sporofiti ... (c).

Nuqtalar o'rnini to'g'ri ma'lumotlar bilan to'ldiring.


- 1) ildizpoyaga ega; 2) barglari patsimon qirqilgan; 3) sporalardan rivojlanadi; 4) poya-bargli o'simlik; 5) arxegoniy hosil qiladi; 6) sporali ko'sakchaga ega; 7) zigotadan rivojlanadi; 8) spermatozoidlar hosil qiladi; 9) zigota hosil qiladi; 10) spora hosil qiladi.

- A) a - 3, 5; b - 6, 9; c - 8, 10  
B) a - 3, 8; b - 6, 7; c - 4, 10  
C) a - 1, 2; b - 7, 9; c - 7, 10  
D) a - 5, 9; b - 4, 10; c - 1, 3

8. Qaysi organizmlarda kichik qon aylanish doirasi bo'ylab qon yurak qorinchasidan o'pka arteriyalari orqali o'pka va teriga keladi?

- A) qurbaqa, kvaksha baqasi  
B) gavial, alligator C) oq laylak, churrak  
D) suvilon, chipor ilon

9. Sxemada odamning katta va kichik qon aylanish doiralari aks ettirilgan. Ushbu sxemada 4, 6, 8 raqamlarga muvofiq ravishda mos keladigan qon aylanish sistemasi qismlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?



- A) 4 - o'ng bo'lmacha, 6 - chap qorincha, 8 - katta qon aylanish doirasi venalari  
B) 4 - o'ng bo'lmacha, 6 - chap qorincha, 8 - katta qon aylanish doirasi arteriyalari  
C) 4 - chap bo'lmacha, 6 - o'ng qorincha, 8 - katta qon aylanish doirasi venalari  
D) 4 - chap bo'lmacha, 6 - o'ng qorincha, 8 - katta qon aylanish doirasi arteriyalari

10. To'g'ri fikrlarni aniqlang.

a) Avstraliya biogeografik viloyatida kabarga uchraydi; b) Neoarktik biogeografik viloyatida gibbon uchraydi; c) Hindomalay biogeografik viloyatida hind fili uchraydi; d) Habashiston biogeografik viloyatida lemur uchraydi. (Tabiiy holda tarqalgan.)

- A) b, d B) a, c C) a, d D) c, d

11. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.

Odam organizmidagi epiteliy to'qimasi ...

- A) vorsinkalar devorini hosil qiladi, yurak devorining o'rta qavatini hosil qiladi  
B) terining eng ustki qavatini hosil qiladi  
C) zich joylashgan hujayralardan iborat, terining derma qavatini hosil qiladi  
D) terining derma qavatini hosil qiladi, tayanch funksiyasini bajaradi

12. Har xil turga kiruvchi organizmlar orasidagi kurash (a), organizmlarning anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi kurash (b) shakllari mos ravishda to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.

1) zarpechakning madaniy o'simlik tanasida yashashi; 2) shuvoqning yozgi qurg'oqchilik vaqtida bargini to'kishi; 3) juftlashish oldidan qurlarning xo'rozlari ochiq maydonda o'zaro bahslashishi; 4) maynalar va chumchuqlar orasida oziq uchun raqobatlashishi; 5) hasharotlarda nafas olish teshiklarining klapanlar bilan yopilishi


- A) a - 1; b - 5 B) a - 5; b - 3  
C) a - 1; b - 4 D) a - 3; b - 2

13. Kserofitlarga mos kelmaydigan ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) suvda o'sadigan o'simliklar; 2) namlik yetishmaydigan sharoitda o'sadigan o'simliklar; 3) ularga agava, baliqko'z, kaktus misol bo'ladi; 4) ularga elodeya, nilufar o'simliklari misol bo'la oladi.

- A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

14. Oziq zanjirlaridagi 1, 2, 3, 4-raqamlarga mos organizmlarni aniqlang.



- A) 1 - kolorado qo'ng'izi; 2 - chigirtka; 3 - jirafa; 4 - los  
 B) 1 - qoraqurt; 2 - chigirtka; 3 - zubr; 4 - baqa  
 C) 1 - sariq chayon; 2 - chigirtka; 3 - tulki; 4 - baqa  
 D) 1 - erkak chivin; 2 - chigirtka; 3 - laylak; 4 - baqa

15. Hujayra organoidlari va ularning ta'riflari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- a) ribosoma; b) mitoxondriya; c) lizosoma.  
 1) proteaza, nukleaza va karbogidrazalar saqlaydi; 2) proteaza; nukleaza va karbogidrazalarni sintezlaydi; 3) prokariot va eukariot hujayralar tarkibida uchraydi; 4) faqat eukariot hujayralar tarkibida uchraydi; 5) lipoprotein, xolesterol sintezida qatnashadi; 6) hayot faoliyati jarayonlarini energiya bilan ta'minlaydi.  
 A) a - 1, 6; b - 2, 4; c - 3  
 B) a - 1, 3; b - 2, 6; c - 4  
 C) a - 2, 6; b - 1, 5; c - 3  
 D) a - 2, 3; b - 4, 6; c - 1

16. Abiotik omil ta'sirini aniqlang.

- A) kuzda tikan daraxt barglarining sovuq ta'sirida to'kilishi  
 B) nok daraxti poyasini uchini chilpish natijasida mo'l hosilga erishish  
 C) loviya maysalarini chigirtkalar tomonidan yeb bitirilishi  
 D) loviya o'simligining devpechak salbiy ta'siri natijasida nobud bo'lishi

17. DNKning 127,5 nm li fragmentidan transkripsiyalangan i-RNK asosida 14160 molekular massaga ega oqsil sintezlangan bo'lsa, i-RNKning qanday uzunlikdagi (nm) qismi translyatsiyada ishtirok etmagan? (Nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm; oqsil tarkibidagi bitta aminokislota qoldig'ining molekular massasi 120.)

- A) 7,14 B) 14,28 C) 21,47 D) 3,57

18. Postembrional rivojlanish davri metamorfoz yo'li bilan amalga oshuvchi umurtqasiz organizmlarni aniqlang.

- 1) sariq falanga; 2) butli o'rgimchak; 3) exinokokk; 4) nereida; 5) yomg'ir chuvalchangi; 6) odam askaridasi; 7) sariq chayon; 8) chuchuk suv gidrasi  
 A) 2, 8 B) 4, 5 C) 1, 7 D) 3, 6

19. Odam askaridasiga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating.

- 1) metamorfoz orqali rivojlanadi; 2) hazm qilish sistemasiga ega; 3) tanasi kutikula bilan qoplangan; 4) urg'ochisida tuxumdon va bachadon mavjud; 5) voyaga yetguncha umurtqasizlarda parazitlik qiladi; 6) umurtqalilar ichagida sistadan lichinka chiqadi.  
 A) 3, 5, 6 B) 1, 4, 6 C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 5

20. Tana massasi 65 kg bo'lgan sog'lom odamda bir sutka mobaynida asosiy moddalar almashinuvini ta'minlash uchun sarflanadigan energiya miqdorini (kcal) aniqlang.

- A) 1440 B) 1560 C) 2240 D) 1680

21. Barglari murakkab toq patsimon (a), juft patsimon (b) va toq bargchalari gajak hosil qilgan (c) o'simliklarni aniqlang.

- A) a - yong'oq; b - soxta kashtan; c - loviya  
 B) a - shirinmiya; b - searga; c - no'xat  
 C) a - yong'oq; b - yeryong'oq; c - burchoq  
 D) a - shirinmiya; b - soxta kashtan; c - burchoq

22. Quyidagi olimlarning biologiya fani rivojiga qo'shgan hissalarini va aniqlagan kashfiyotlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
a) V.V.Dokuchayev – hujayrasiz hayot yo'qligini aniqlagan; b) V.I.Vernadskiy – biosfera haqidagi ta'limotni aniqlagan; c) I.P.Pavlov – bosh miya turli qismlari maxsus nerv hujayralari to'plamidan iboratligini aniqlagan; d) P.F.Borovskiy – embrionlarning o'xshashlik qonunini yaratgan.  
A) b, c B) b, d C) a, b D) a, c
23. Gemofiliya bilan kasal ko'k ko'zli erkak qo'y ko'zli sog'lom ayolga (otasi gemofilik ko'k ko'z) uylandi. Nazariy jihatdan tug'ilishi mumkin bo'lgan qizlarning necha foizi ko'k ko'zli bo'ladi?  
A) 75 B) 12,5 C) 50 D) 25
24. Turkum sistematik birligiga mos keluvchi javobni aniqlang.  
A) yassi chuvalchanglar, burchoqdoshlar  
B) ituzum, boychechak  
C) halqali chuvalchanglar, karamdoshlar  
D) molluskalar, lolasimonlar
25. Orangutang somatik hujayrasi mitoz sikli  $G_2$  davridagi DNK (a), xromosoma (b), hujayra markazi (c) va sentriolalar (d) sonini aniqlang.  
A) a - 48; b - 48; c - 1; d - 2  
B) a - 96; b - 48; c - 2; d - 4  
C) a - 96; b - 48; c - 1; d - 2  
D) a - 96; b - 96; c - 2; d - 2
26. Kelib chiqish markazi Janubi-G'arbiy Osiyo hisoblangan o'simliklar haqida ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) bug'doy; 2) sabzi; 3) karam; 4) beda; 5) arpa; 6) suli.  
A) 3 - gulkosachabargi to'rtta; 5 - hayotiy shakli daraxt  
B) 4 - gullari qiyshiq; 6 - uch bargchali murakkab bargga ega  
C) 1 - murakkab boshli to'pgulni hosil qiladi; 2 - to'pguli murakkab soyabon  
D) 1 - somatik hujayralari mitozni profazasida 96 ta DNK ga ega; 4 - gulkosachabargi ikki qavatli

27. Jadvalning qaysi qatorida garmonlar, ular ishlab chiqaradigan ichki sekretsiya bezlari va garmonlarining funksiyalari muvofiq tarzda berilgan?

№	Gormon	Ichki sekretsiya bezi	Funksiyasi
1.	Gluko-kortikoid	Buyrak usti bezining miya qismi	Uglevod almashinuvini boshqaradi
2.	Adrenalin	Buyrak usti bezining miya qismi	Arterial qon bosimini oshiradi
3.	Intermidin	Gipofizning o'rta bo'lagi	Pigment almashinuvini boshqaradi
4.	Timozin	Buyrak usti bezining po'stloq qismi	Jinsiy bezlar funksiyasini kuchaytiradi
5.	Vazo-pressin	Gipofizning orqa bo'lagi	Qon tomirlarini toraytiradi
6.	Estrogen	Qalqonsimon bez	Erkaklarda jinsiy bezlar funksiyasini susaytiradi

- A) 2, 3, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 4, 6 D) 2, 3, 5

28. Murakkab gulqo'rg'onga ega, quruq mevali o'simliklarni aniqlang.  
A) turp, olxo'ri B) loviya, burchoq  
C) mosh, bug'doy  
D) mingdevona, boychechak
29. Nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang.  
Mendelning birinchi qonuniga asosan ...  
A) bir juft belgisi bilan farq qiladigan gomozigota organizmlar o'zaro chatishtirilsa,  $F_1$  duragaylar ota-ona organizmlarning bitta belgisiga ega bo'lib, barchasi fenotip va genotip jihatdan bir xil bo'ladi  
B) ikki yoki undan ortiq juft muqobil belgilari bilan farq qiladigan ota-ona organizmlar o'zaro chatishtirilganda, genlar va unga mos belgilar bir-biridan mustaqil ravishda irsiylanadi  
C) bir xromosomada joylashgan genlar birikkan genlar deyiladi, ya'ni mustaqil taqsimlanmay, asosan birgalikda nasldan naslga o'tadi  
D) geterozigota holatdagi ikkita  $F_1$  bo'g'inni o'zaro chatishtirish natijasida ikkinchi bo'g'inda ajralish kuzatiladi

30. Quyida keltirilgan qaysi evolyutsion o'zgarishlar suyakli baliqlar kelib chiqishidan avval sodir bo'lgan?
- 1) dastlabki quruqlik o'simliklarining kelib chiqishi; 2) kaltakesak va toshbaqalar ajdodlarining paydo bo'lishi; 3) trilobitlarning paydo bo'lishi; 4) urug'li o'simliklarning kelib chiqishi; 5) zamburug'larning paydo bo'lishi.
- A) 2, 3, 4,    B) 1, 2, 5    C) 1, 3, 5  
D) 3, 4, 5

**Test varianti "Test topshiriqlari to'plami 2019" asosida shakllantirilgan:**

1 – 13-bet 18	7 – 70-bet 10	13 – 119-bet 35	19 – 79-bet 70	25 – 30-bet 5
2 – 59-bet 17	8 – 74-bet 36	14 – 123-bet 2	20 – 18-bet 1	26 – 49-bet 3
3 – 8-bet 14	9 – 91-bet 33	15 – 21-bet 13	21 – 62-bet 2	27 – 96-bet 15
4 – 18-bet 32	10 – 100-bet 17	16 – 117-bet 14	22 – 10-bet 31	28 – 53-bet 15
5 – 48-bet 75	11 – 85-bet 26	17 – 22-bet 21	23 – 42-bet 39	29 – 37-bet 1
6 – 82-bet 12	12 – 107-bet 19	18 – 34-bet 4	24 – 28-bet 22	30 – 108-bet 1